



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 1-mart

100-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 83-sonli qarori ijrosi haqida”gi viloyat hokimining 2025-yil 27-fevral 92-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 83-sonli qarorini, shu mazmundagi viloyat hokimining 2025-yil 27-fevral 92-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini tumanda ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi 83-sonli qarori ijrosi yuzasidan, viloyat hokimining 2025-yil 27-fevral 92-6-0-Q/25-sonli asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2.Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi 83-sonli qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-sonli qaroriga muvofiq, 2025-yil yakuniga qadar, respublikadagi kambag‘al oilalarning 3-7 yoshli bolalarini maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 89.5 foizga yetkazish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilar:

2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga;

2025-2026-yillarda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishning maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga;

Jahon bankining “Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko‘maklashish” loyihasi doirasida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘yin maydonchalari va tayyorlov guruhlarini stol-stullar bilan jihozlash bo‘yicha ko‘rsatkichlar 3-lovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilab qo‘yilishicha;

aholining yashash darajasi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan (kambag'al oilalar kam bo'lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

olis va chekka (tuman va shaharlar markazida joylashmagan) mahallalarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

aholining to'lov qobiliyati past (kambag'al oilalar nisbatan ko'p bo'lgan) hamda demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

ijtimoiy soha muassasalarining bo'sh binolarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etilishi;

Maktabgacha va maktab ta'limivazirligi:

a) "Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko'maklashish" loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan 2025-yil 1-martga qadar:

mazkur qarorning 3-ilovasida belgilangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'yin maydonchalari va tayyorlov guruhlarini stol-stul bilan jihozlash choralari ko'rishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar kambag'al oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlasin;

2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2025-2026-yillarda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishning maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligining matbuot kotibi (Sh.Kenjayeov) va boshqa ommaviy axborot vositalari maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev) manfaatdor boshqarma va idoralar, bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi 83-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 1-martdagi
100-6-81-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish
darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar**

DASTURI

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Moliyaviy manbasi	Mas'ul
1.	Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 89.5 foizga yetkazish.	O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chikarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari doirasida yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, mavjud ta'mirtalablarni rekonstruksiya qilish. Bunda 2025-yilda 2 ta rekonstruksiya qilish Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga qo'shimcha bola o'rinlarini yaratish bo'yicha yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish yoki mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chikarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shakllantirish. Yangi 7 ta nodavlat, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari	2025-2026-yillar Har yili sentabr 2025-2026-yillarda	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ajratilgan mablag'lar doirasida	Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

		mavjud bo'lmagan mahallalarda: chekka va olis mahallalarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari; bo'sh turgan ijtimoiy soha obyektlarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish.			
2.	6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov guruhleri bilan to'liq qamrab olish.	1. 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ishlarini davom ettirish. Bunda: qisqa muddatli va to'liq kunlik tayyorlov guruhlarini; to'liq koeffitsiyentda ishlamayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining bo'sh xonalarida bir yillik majburiy tayyorlov guruhlarini tashkil qilish. Maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish.	2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi mablag'lar doirasida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

3.	Aholining yashash darajasi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan (kambag'al oilalar kam bo'lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	Mahalliy hokimliklar tomonidan aholining yashash darajasi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan mahallalarni tanlab olish va ularning ro'yxatini shakllantirish. O'z mablag'lari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish istagini bildirgan tashabbuskor tadbirkorlarni aniqlash. Tadbirkorlar tomonidan "Maktabgacha ta'limni boshqarish" axborot tizimida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun taqdim etilgan elektron arizalar asosida davlat-xususiy sheriklik bitimlarini tuzish.	2025-2026-yillar davomida har yili yanvar	Doimiy	Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
4.	Aholining to'lov qobiliyati past (kambag'al oilalar nisbatan ko'p bo'lgan) va demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan Mahallalarda davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	Aholining to'lov qobiliyati past bo'lgan va demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan mahallalar reestrini shakllantirish. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish tashabbusini bildirgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish uchun resurs ta'minotini belgilash. Resurs mablag'lari shakllangandan so'ng belgilangan tartibda davlat va xususiy sherik o'rtasida bitim imzolash. Davlat-xususiy	2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi mablag'lari doirasida	Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

		sheriklik maktabgacha tashkilotlarini h chorasini	asosidagi ta'lim moliyalashtiris			
--	--	--	--	--	--	--

		ko'rish.			
5.	Tumanning chekka mahallalarida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	Tumanning chekka va olis mahallalarini aniqlash va ularning reyestrini shakllantirish. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil qilish istagini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxatini shakllantirish. Yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan o'rnatilgan tartibda bitimlarni imzolash. Maktabgacha ta'limning afzalliklari bo'yicha ota-onalar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish va bolalarni qamrab olish.	2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi mablag'lar doirasida, ijrochilar mablag'lari hisobidan	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
6.	Bo'sh turgan ijtimoiy soha muassasalarining binolarida qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish.	Bo'sh turgan ijtimoiy soha obyektlari va ulardagi bo'sh turgan xonalarning holatini aniqlash. Bo'sh turgan obyektlar joylashgan mahallalardagi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar ro'yxatini shakllantirish. Bo'sh turgan xonalarni ta'mirlash va bolalarning yosh xususiyatini inobatga olgan holda jihozlash. Qisqa muddatli guruhlar faoliyatini yuritish uchun malakali pedagoglarni ishga jalb qilish va ularning faoliyatini moliyalashtirish. Qisqa muddatli guruhlarga bolalarni qamrab olish.	2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi mablag'lar doirasida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

**2025-2026-yillarda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishning
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hudud nomi	Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinadigan bolalar soni	
		2025-yil	2026-yil
1.	Mingbuloq tumani	10632	11140